

AQSh qonunchiligini qo'llagan holda O'zbekiston hududida spirtli ichimliklar savdosini cheklash

Xomidova Oyshaxonim Ulug`bek qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston Respublikasida AQSH Konstitutsiyasi qonunchiligi hamda chet el tajribasini qo'llagan holda mamlakat hududida spirtli ichimliklar, alkogol mahsulotlar, shuningdek, mast qiluvchi ichimliklarning savdosini cheklash; spirtli ichimliklar iste'mol qilish natijasida yuz beradigan jinoyatlarni oldini olish; ushbu harakatni qonun yo'li bilan amalga oshirish; jamiyatni sog'lom turmush tarziga o'rgatish va ularni alkogolizm hamda ichkilikbozlikdan uzoqlashtirish masalalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: AQSH Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi, spirtli ichimliklar, alkogolizm, xavfli oqibatlar, sog'lik, odam o'ldirish, normative-huquqiy hujjat, qonun, xalq manfaati.

Kirish

Hozirgi **globalashuv** jarayonida odamlarni ayni bir narsaga o'rgatish, ularni bir oqimga yo'naltirish juda oson ish hisoblanadi. Ajablanarlisi shundaki, bunday vaziyatda ular faqatgina oson yo'lga talpinadilar. Hozir dunyoda juda ko'p yoshlar, yoshi kattalar ham bunday oqimlarga tushib qolishmoqda. Ulardan biri — ichkilikbozlikdir. Alkogolizm — tibbiyot nuqtai nazaridan spirtli ichimliklarni mudom ichaverish oqibatida ro'y beradigan surunkali kasallik; ashaddiy ichkilikbozlik. Keng ma'noda — spirtli ichimliklarni me'yoridan ortiq ichishning kishilar sog'ligi va mehnat qobiliyatiga, ma'naviy va maishiy hayotiga, shuningdek jamiyat farovonligiga zarar yetkazadigan zararlari majmui. Alkogolizm individual va ijtimoiy hayotning hamma shakllariga ta'sir ko'rsatadi. Ichkilik ta'sirida odamlar jamiyat va davlat oldida mas'uliyat sezish hissini yo'qotib qo'yadi, bezorilik va qonunni buzishga aloqador boshqa xatti-harakatlarni qilishi mumkin. Alkogolizm ishlab chiqarishga zarar yetkazadi, mehnat intizomining buzilishi va unumdorligining pasayishi, odamlarning xastalanib qolishi va hatto bevaqt halok bo'lishiga olib keladi. *Mastlikda odamning muvozanatni yaxshi saqlay olmasligi, diqqat chalg'ib, atrofdagi vaziyatni aniq bila olmasligi baxtsiz hodisalarga sabab*

bo'ladi. Buning natijasida ichkilikka ruju qo'ygan odamlar jamiyatga turli xavfli oqibatlarni olib kelishlari mumkin.

Ushbu kasallikka qarshi kurashish uchun ko'pdan ko'p tadbirlar, namoyishlar o'tkazilmoqda, sport mashg'ulotlari, hayotga yangicha nazar bilan qarash kishilar ongiga singdirilmoqda. Biroq ushbu harakatlar ko'pincha samara berish o'rniga aks ta'sir ko'rsatmoqda. Ichkilikbozlikni man etuvchi asosiy himoya vositasi din hisoblansa-da, hozirgi globallashuv jarayonida ko'pchilik diniy qadriyatlar, madaniyatlar toptalmoqda. Odamlar ularga amal qilmay qo'ymoqdalar. Garchi hukumat demokratiya prinsipiga asoslanib ish ko'rsada, ular jamiyat farovonligi hamda tinch-totuv hayotini birinchi o'ringa qo'yishlari lozim.

Asosiy qism

Ma'lumki, **AQSh Konstitutsiyasiga** 1919-yilda *"Mast qiluvchi ichimliklarni man etish"* to'g'risida **XVIII O'zgartirish** kiritilib ratifikatsiya qilingan. Unga ko'ra, ushbu modda ratifikatsiya qilinishidan boshlab 1 yildan so'ng, aholini ichimlik bilan ta'minlash maqsadida mast qiluvchi ichimliklarni ishlab chiqarish, sotish yoki tashish, ularni import qilish yoki Qo'shma Shtatlardan eksport qilish uning yurisdiksiyasi ostidagi barcha hududlarda ta'qiqlanadi, deb yozib o'tilgan. Ayni ushbu modda kuchga kirganidan so'ng mamlakatda butunlay alkogol mahsulotlari savdosi to'xtatilgan. Tarixiy faktlarga qadaydigan bo'lsak AQShda 1920-1930-yillar oralig'ida, garchi moliyaviy jihatdan retsessiyaga uchragan bo'lsa ham, **ishlab chiqarish kuchlari shiddatli ravishda ko'tarilgan.** Mamlakat YaIMi hisob bo'yicha **bir yarim baravarga** oshgan. Mening fikrimcha aynan mast qiluvchi ichimliklar savdosi mam etilishi mamlakatning iqtisodiy jihatdan rivojlanishiga ko'mak bergan. Biroq keyinchalik bu O'zgartirish bekor qilingan.

JSST statistika ma'lumotlariga ko'ra ichkilikbozlik ortidan yiliga **3 milliondan ortiq** inson hayotdan ko'z yummoqda. JSST hukumatlar va sog'liqni saqlash tuzilmalari tashkiloti rahbari **Tedros Gebreyesus** quyidagi gaplarni aytib o'tgan:

- *"Spirtili ichimliklar yoshlarning nafaqat sog'ligi, hayoti va oilasiga, balki butun jamiyatga tahdid solmoqda, shunga qaramay, ularning savdosi va reklamasi ustidan o'rnatilgan nazorat boshqa psixotrop moddalarga nisbatan ancha zaif"*.

O'zbekiston Respublikasida ham bunday holatlar juda ko'p marotaba uchramoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, **odam o'ldirish** kabi jinoyatlarning **80 foizi** ichkilikbozlik

natijasida yuz bergan. Ushbu holatlar jamiyat manfaatlariga zid kelib, ularning hayotini xavf ostida qoldiradi. Davlat bu yerda demokratiyani emas, avvalo aholi xavfsizligini, uning faravon hayotini hisobga olishi lozim.

Spirтли ichimliklar to'g'risida O'zbekiston Respublikasida bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi *"Spirт va alkogolli mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish ustidan davlat nazoratini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"*gi Vazirlar Mahkamasining qarori asosan spirтли ichimliklarni ishlab chiqarish jarayonini tartibga soladi. O'zbekiston Respublikasining *"Reklama to'g'risida"* gi Qonuniga muvofiq mamlakatimizda har qanday quvvatdagi alkogolli ichimliklar reklamasi taqiqlangan. Biroq ushbu mahsulotlar aholi o'rtasida qanday iste'mol qilinishi to'g'risida aniq bir norma mavjud emas yoki unga amal qilinmaydi. Bunday holatlarni oldini olish maqsadida davlat mamlakat hududida spirт va alkogolli mahsulotlar savdosini cheklashi yoki man qilishi lozim.

Chet el tajribasini oladigan bo'lsak, masalan, Yaman davlatida spirтли ichimliklarni sotilishiga ayrim mehmonxona, restoranlarga ruxsat beradi. Hatto turistlarga o'zlari bilan birga cheklangan miqdorda ichimlik olib kirishga va uni faqat uyda yoki mehmonxona xonasida ichishga ruxsat beriladi.

Birlashgan Arab Amirliklarida spirтли ichimliklar sotishga belgilangan qat'iy tartib bilan ruxsat beriladi, ya'ni mehmonxonalarga, restoranlarga va boshqa joylarga, agar sotuvchida bu faoliyat olib borishga ruxsat berilgan litsenziya mavjud bo'lsa. Jamoat joyida sotib olish, sotish yoki iste'mol qilish qamoq yoki darra urish kabi boshqa jazoga sabab bo'ladi. Musulmon bo'lmaganlar o'z uylarida va maxsus barlarda ichishlari mumkin.

Maldiv orollarida juda ko'p turistlar bo'lishiga qaramasdan, bu yerda spirтли ichimliklar butunlay taqiqlangan. Faqatgina dam olish maskanlari va bir necha mehmonxonalarga sotishga ruhsat berilgan. Shu bilan birga mijozlarda spirтли ichimlik ichish uchun maxsus ruxsatnoma bo'lishi kerak.

Xulosa

"Davlat — majburlov kuchiga ega!"

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ichmaydigan inson ichkilikka ruju qo'ygan odamga qaraganda 60 foiz samaraliroq harakat qilar ekan. Agar inson spirтли ichimliklar

ichishni tashlasa jismoniy jihatdan sog'lom bo'la boshlaydi. Ish jarayonida holsizlanish, bosh og'riq kabi simptomlar o'z-o'zidan yo'qolib boradi. Miyya faoliyati tiklanib, xotira yaxshilana boshlaydi. Shuningdek, saraton kasalligi xavfini maksimum ravishda yo'qqa chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasi hukumati ham yuqorida keltirib o'tgan davlatlar tajribalaridan foydalangan holda davlat territoriyasida spirtli hamda alkogolli ichimliklar savdosini cheklash, iloji bo'lsa man etish to'g'risida qonun qabul qilishlari lozim . Bu qonun xalq manfaatiga, asosan inson sog'ligiga hech qanday zarar keltirmaydi. Aksincha, kishi madaniyatini yana bir pog'onaga ko'taradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Amerika Qo'shma Shtatlari Konstitutsiyasi
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
3. O'zbekiston Respublikasi "Spirtli va alkogolli mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish ustidan davlat nazoratini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Vazirlar Mahkamasining qarori.
4. O'zbekiston Respublikasining "Reklama to'g'risida"gi Qonuni.
5. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi

<https://lex.uz/uz/>

6. Wikipedia internet sahifasi

<https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Alkogolizm>

7. Yangi O'zbekiston internet sahifasi

<https://yuz.uz/uz/news/jsst-ichkilikbozlik-har-10soniyada-bir-insonning-hayotiga-zomin-bolmoqda>

8. <https://zarnews.uz/uz/post/zamonaviy-dunyoda-taqiq-spiritli-ichimliklarni-sotish-qaysi-davlatlarda-mumkin-emas>